

**Yuridik shaxs maqomiga ega bo'lgan korxonalar va tashkilotlarda ishlovchi xodimlarning o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi**

(2020- yil yanvar-iyun, dastlabki ma'lumot)

2020- yilning yanvar-iyun oylarida viloyat bo'yicha yuridik shaxs maqomiga ega bo'lgan korxonalar va tashkilotlarda ishlovchilarning o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi 2076,3 ming so'mni tashkil etib, 2019- yilning mos davriga nisbatan 20,5 % ga oshdi.

O'tgan yilning mos davriga nisbatan asosiy mehnat ko'rsatkichlarining o'zgarishi


(qishloq xo'jaligi va kichik tadbirkorlik subyektlaridan tashqari)

Korxonalar va tashkilotlar soni
104,1 %**Xodimlar soni**
99,4 %**Ish haqi fondi**
121,2 %**O'rtacha ish haqi**
120,5 %

Ma'lumot uchun: O'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi tarkibiga ish haqiga ustama, mukofot, rag'batlantirish xususiyatiga ega to'lovlar, kompensatsiya va ishlanmagan vaqt uchun haq kabi to'lovlar kiritilgan, shuningdek, uning tarkibida jismoniy shaxslar daromad solig'i va kasaba uyushmasiga to'lovlar ham mavjud.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqining viloyatdagi o'rtacha oylik ish haqiga nisbatan o'zgarishi, % da

(2020- yil yanvar-iyun, qishloq xo'jaligi va kichik tadbirkorlik subyektlaridan tashqari)



O'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqining viloyat bo'yicha o'rtacha ko'rsatkichidan sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish faoliyati – 20,3 % ga, ta'lim sohasi - 15,1 % ga, bank, sug'urta va vositachilik faoliyati - 54,6 % ga, axborot va aloqa sohasi - 13,7 % ga viloyat bo'yicha o'rtacha ko'rsatkichdan sezilarli darajada yuqoriligi kuzatildi.


Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yuridik shaxs maqomiga ega bo'lgan korxonalar va tashkilotlarda ishlovchi xodimlarning o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi, ming so'm

(2020 yil yanvar-iyun oylari uchun, qishloq xo'jaligi va kichik tadbirkorlik subyektlaridan tashqari)




Iqtisodiy faoliyatning barcha turlarida 2019- yilning mos davriga nisbatan o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqining o'sishi kuzatildi. Ayniqsa bank, sug'urta faoliyatida - 4954,7 ming so'mni, tashish va saqlash sohasida – 2676,9 ming so'mni tashkil etdi.


Sanoat




Qurilish




Tashish va saqlash




Moliya va sug'urta faoliyati



Ta'lim




Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish



“Ta’lim” sohasi bo‘yicha o‘rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi

(2020- yil yanvar-iyun, qishloq xo‘jaligi va kichik tadbirkorlik subyektlaridan tashqari)


Ta’lim sohasi bo‘yicha o‘rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi 1787,0 ming so‘mni tashkil etib, 2019- yilning mos davriga nisbatan 15,1 % ga oshgan.



Viloyatdagi o‘rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqiga nisbatan sezilarli yuqori ko‘rsatkichlar Farg`ona shahri - 133,4 % ,Qo'qon shahri - 117,7 % , Bog`dod tumani - 105,8 % va So'x tumani – 100,1 % hissasiga to‘g‘ri kelgan.



O'rtacha oylik ish haqi, ming so'm




Shu bilan birga, 15 ta hududda ushbu sohadagi o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqining viloyat o'rtacha ko'rsatkichidan past ekanligi kuzatildi.

Viloyatdagi o'rtacha oylik ish haqiga nisbatan sezilarli past ko'rsatkichlar Farg'ona tumani - 88,8 %, Toshloq tumani – 88,7 %, Buvayda tumani - 88,3 %, Beshariq tumani - 85,2 % hissasiga to'g'ri kelgan.



“Qurilish” iqtisodiy faoliyat turi bo‘yicha o‘rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi

(2020- yil yanvar-iyun, qishloq xo‘jaligi va kichik tadbirkorlik subyektlaridan tashqari)




Qurilish sohasi bo‘yicha bir qator hududlarda o‘rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqining viloyatida o‘rtacha oylik ish haqiga nisbatan yuqori ko‘rsatkichlari kuzatildi.

Viloyatdagi o‘rtacha oylik ish haqiga nisbatan yuqori ko‘rsatkichlar Beshariq tumani – 109,9 %, Qo‘qon shahri – 100,3 %, Dang`ara tumani - 141,4 %, Farg`ona shahri– 106,4 %, hissasiga to‘g‘ri kelgan.

O'rtacha oylik ish haqi,
ming so'm

Shu bilan birga, viloytaning 8 ta hududida ushbu sohadagi o‘rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqining viloytida darajasidan past ekanligi kuzatildi.

Ish haqining nisbatan sezilarli past ko‘rsatkichlari Yozvovon tumani - 91,0 %
Margi`lon shahri - 62,1 %
hissasiga to‘g‘ri keldi.




**“Savdo” iqtisodiy faoliyat turi bo‘yicha o‘rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi**

(2020- yil yanvar-iyun, qishloq xo‘jaligi va kichik tadbirkorlik subyektlaridan tashqari)

Savdo sohasi bo‘yicha bir qator hududlarda o‘rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqining respublika o‘rtacha oylik ish haqiga nisbatan yuqori ko‘rsatkichlari kuzatildi.

Viloyatdagi o‘rtacha oylik ish haqiga nisbatan yuqori ko‘rsatkichlar Margi‘lon shahri - 145,9 % va Farg‘ona shahri - 105,9 % hissasiga to‘g‘ri kelgan.




Shu bilan birga, viloyatning 5 ta hududida ushbu sohadagi o`rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqining viloyat darajasidan past ekanligi kuzatildi.

Ish haqining nisbatan past ko`rsatkichlari Uchko`prik tumani - 86,1 %, Qo`qon shahri - 80,3 %, Bog`dod tumani - 80,0 %, Toshlok tumani - 76,6 % hamda Quva tumani - 53,8 % hissasiga to`g`ri keldi.

O`rtacha oylik ish haqi, ming so`m


(2020- yil yanvar-iyun, qishloq xo`jaligi va kichik tadbirkorlik subyektlaridan tashqari)



**“Sanoat” iqtisodiy faoliyat turi bo‘yicha o‘rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi**


Sanoat sohasi bo‘yicha bir qator hududlarda o‘rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqining viloyatida o‘rtacha oylik ish haqiga nisbatan yuqori ko‘rsatkichlari kuzatildi.

Viloyatdagi o‘rtacha oylik ish haqiga nisbatan yuqori ko‘rsatkichlar Bog‘dod tumani - 116,8 %, Farg‘ona shahri - 114,4 % va Margi‘lon shahri - 104,4 % hissasiga to‘g‘ri kelgan.



Shu bilan birga, viloyatining 8 ta hududida ushbu sohadagi o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqining viloyatda darajasidan past ekanligi kuzatildi.

Ish haqining nisbatan past ko'rsatkichlari Rishton tumani – 98,8 %, Qo'qon shahri - 90,0 %, Qo'shtepa tumani – 86,0 %, Toshlok tumani – 85,7 %, O'zbekiston tumani - 83,5 %, Quvasoy shahri – 81,8 %, Beshariq tumani – 71,9 % hamda Quva tumani i - 64,9 % hissasiga to'g'ri keldi.






“Sogʻliqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar koʻrsatish” iqtisodiy faoliyat turi boʻyicha oʻrtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi

(2020- yil yanvar-iyun, qishloq xoʻjaligi va kichik tadbirkorlik subyektlaridan tashqari, ming soʻm)

Oʻrtacha oylik ish haqi, ming soʻm




Sogʻliqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar koʻrsatish sohasi boʻyicha oʻrtacha oylik nominal hisoblangan ish haqining viloyatdagi oʻrtacha oylik ish haqiga nisbatan yuqori koʻrsatkichlari Furqat tumani - 122,0 %, Quva tumani - 115,2 %, Fargʻona shahri -115,0 %, Qoʻshtepa tumani - 114,7 %, Margi`lon shahri - 110,3 % hamda Oltiariq tumani - 106,4 % hissasiga toʻgʻri kelgan.

Ushbu sohadagi oʻrtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi viloyatining 6 ta hududida i oʻrtacha oylik ish haqi koʻrsatkichidan past boʻldi.

Xususan, ish haqining nisbatan past koʻrsatkichlari Qoʻqon shahri - 95,8 %, Bogʻdod tumani - 94,0 %, Buvayda tumani - 89,3 %, Oʻzbekiston tumani - 88,7 %, Dangʻara tumani – 88,3 % hamda Fargʻona tumani - 76,2 %, hissasiga toʻgʻri kelgan.



Oʻrtacha oylik ish haqi, ming soʻm






“Tashish va saqlash” iqtisodiy faoliyat turi bo‘yicha o‘rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi


(2020- yil yanvar-iyun, qishloq xo‘jaligi va kichik tadbirkorlik subyektlaridan tashqari)

Tashish va saqlash sohasidagi o‘rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqining viloyatdagi o‘rtacha oylik ish haqiga nisbatan yuqori ko‘rsatkichlari Qo‘qon shahrida - 106,1 % va Farg‘ona shahrida - 101,8 % kuzatildi.



Shu bilan bir qatorda, viloyatning 3 ta hududida tashish va saqlash sohasidagi o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi ko'rsatkichi viloyatda darajasidan past bo'ldi.

Tashish va saqlash sohasida viloyatida ko'rsatkichidan sezilarli darajada past o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi ko'rsatkichi ida Farg'ona shahrida - 91,6 %, Yozyovon tumani - 74,9 % hamda Rishton tumani - 62,9 % kuzatildi.






“ Moliya va sug'urta ” iqtisodiy faoliyati bo'yicha o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi

(2020- yil yanvar-iyun, qishloq xo'jaligi va kichik tadbirkorlik subyektlaridan tashqari, ming so'm)


O'rtacha oylik ish haqi,
ming so'm



Moliya va sug'urta faoliyati bo'yicha o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi ko'rsatkichi viloyatdagi o'rtacha oylik ish haqiga nisbatan ko'rib chiqilganda eng yuqori ko'rsatkich %, Quvasoy shahrida - **142,0** %, Qo'qon shahrida – **115** % va Marg'lon shahrida – **104,8** % ni tashkil etdi.

Ushbu sohadagi o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi ko'rsatkichi viloyatning 16 ta hududida viloyat o'rtacha oylik ish haqi ko'rsatkichidan past bo'ldi. Ish haqining sezilarli past ko'rsatkichlari Quva tumani - 79,7 %, Uchko'prik tumani – 70,3 %, Toshloq tumani- 47,2 % hamda Dang'ara tumani – 44,0 % viloyatlari hissasiga to'g'ri keldi.

O'rtacha oylik ish haqi,
ming so'm





Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqining o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan o'sish sur'atlari, % da


(2020- yil yanvar-iyun, qishloq xo'jaligi va kichik tadbirkorlik subyektlaridan tashqari)

Viloyat bo'yicha 2020- yilning yanvar-iyun oylarida 2019- yilning mos davriga nisbatan iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi bank, sug'urta faoliyatida 54,6 % ga, tashish va saqlashda 28,5 % ga, sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatishda 29,4 % ga, qurilishda 92 % san'at, ko'ngil ochish va dam olishda 30,0 % ga, sanoatda 22,5 % ga, ta'lim sohasida 15,1 % ga, savdoda 9,4 % ga, axborot va aloqada 13,7 % ga o'sganligi kuzatildi.



“Ta’lim” iqtisodiy faoliyat turi bo'yicha o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqining o'sish sur'atlari

(o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan, % da)




Ta'lim sohasi bo'yicha o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi ko'rsatkichi joriy yilning aprel oyida 1604,9 ming so'mni, may oyida 1640,7 ming so'mni, iyun oyida esa 1721,7 ming so'mni tashkil etganligi kuzatildi.

Soha bo'yicha o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi ko'rsatkichi o'tgan yilning mos davriga nisbatan 15,1 % ga o'sdi.

**“Sanoat” iqtisodiy faoliyat turi bo‘yicha o‘rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqining o‘shish sur‘atlari**


(o‘tgan yilning tegishli davriga nisbatan, % da)



Sanoat sohasi bo‘yicha o‘rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi ko‘rsatkichi joriy yilning aprel oyida 2678,9 ming so‘mni, may oyida 2813,0 ming so‘mni, iyun oyida esa 2635,6 ming so‘mni tashkil etganligi kuzatildi.

**“Sog‘liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko‘rsatish” iqtisodiy faoliyat turi bo‘yicha o‘rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqining o‘shish sur‘atlari**


(o‘tgan yilning tegishli davriga nisbatan, % da)



Sog‘liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko‘rsatish sohasi bo‘yicha o‘rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi ko‘rsatkichi joriy yilning aprel oyida 1564,2 ming so‘mni, may oyida 1643,4 ming so‘mni, iyun oyida esa 1586,1 ming so‘mni tashkil etganligi kuzatildi.

**“Savdo” iqtisodiy faoliyat turi bo‘yicha o‘rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqining o‘shish sur‘atlari**


(o‘tgan yilning tegishli davriga nisbatan, % da)



Savdo sohasi bo‘yicha o‘rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi ko‘rsatkichi joriy yilning aprel oyida 2127,0 ming so‘mni, may oyida 2024,2 ming so‘mni, iyun oyida esa 1754,7 ming so‘mni tashkil etganligi kuzatildi.

**“Qurilish” iqtisodiy faoliyat turi bo‘yicha o‘rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqining o‘shish sur‘atlari**

(o‘tgan yilning tegishli davriga nisbatan, % da)




Qurilish sohasi bo‘yicha o‘rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi ko‘rsatkichi joriy yilning aprel oyida 2012,1 ming so‘mni, may oyida 2177,1 ming so‘mni, iyun oyida esa 2075,7 ming so‘mni tashkil etganligi kuzatildi.



“Moliya va sug'urta” faoliyati iqtisodiy faoliyat turi bo'yicha o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqining o'sish sur'atlari

(o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan, % da)




Moliya va sug'urta sohasi bo'yicha o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi ko'rsatkichi joriy yilning aprel oyida 4634,2 ming so'mni, may oyida 5773,9 ming so'mni, iyun oyida esa 4115,8 ming so'mni tashkil etganligi kuzatildi.



“Tashish va saqlash” iqtisodiy faoliyat turi bo'yicha o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqining o'sish sur'atlari


(o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan, % da)



Tashish va saqlash sohasi bo'yicha o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi ko'rsatkichi joriy yilning aprel oyida 3264,5 ming so'mni, may oyida 3455,4 ming so'mni, iyun oyida esa 3392,5 ming so'mni tashkil etganligi kuzatildi.

Hududlar bo'yicha o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqining respublikadagi o'rtacha oylik ish haqiga nisbatan o'zgarishi, % da

(2020- yil yanvar-iyun, qishloq xo'jaligi va kichik tadbirkorlik subyektlaridan tashqari)




Hududlar bo'yicha o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqining yuqori miqdori Farg'ona shahrida 2754,9 ming so'mni, Qo'qon shahrida 2267,1 ming so'mni, Quvasoy shahrida 2026,4 ming so'mni va Margi'lon shahrida 1895,7 ming so'mni tashkil etgan bo'lsa, boshqa hududlarga nisbatan kam miqdorni Dang'ara tumanida 1578,8 ming so'mni, Farg'ona tumanida 1578,8 ming so'mni, tashkil etgan.



**Farg`ona viloyati bo'yicha yuridik shaxslarda
ishlovchilarning o'rtacha oylik
nominal hisoblangan ish haqi, ming so'm**

	yanvar-iyun 2019- yil	yanvar-iyun 2020- yil	O'sish sur'ati, % da
Farg`ona viloyati	1722,6	2076,3	120,5
Farg`ona	2143,5	2754,9	128,5
Qo'qon	1890,9	2267,1	119,9
Quvasoy	1760,2	2026,4	115,1
Marg'ilon	1627,2	1895,7	116,5
Oltiariq	1504,4	1708,8	113,6
Qo'shtepa	1427,2	1744,8	122,3
Bog'dod	1545,0	1926,6	124,7
Buvayda	1381,6	1572,7	113,8
Beshariq	1308,8	1516,0	115,8
Quva	1415,0	1737,2	122,8
Uchko'prik	1471,8	1753,2	119,1
Rishton	1439,9	1739,8	120,8
So'x	1476,0	1817,5	123,1
Toshloq	1756,6	1934,9	110,2
O'zbekiston	1534,7	1729,8	112,7
Farg`ona	1328,5	1486,8	111,9
Dang'ara	1420,2	1578,8	111,2
Furqat	1556,3	1857,3	119,3
Yozyovon	1769,6	1877,3	106,1

(qishloq xo'jaligi va kichik tadbirkorlik subyektlaridan tashqari)



O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2020- yil uchun O'zbekiston Respublikasining davlat byudjeti to'g'risida"gi Qonuni ijrosini ta'minlash chora-tadbirlarito'g'risida"gi Qaroriga muvofiq, 2020- yilning 1- fevralidan boshlab mehnatga haq to'lashning eng kam miqdori 679 330 so'mni tashkil etadi.

Ma'lumot uchun: "O'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi" ko'rsatkichi iqtisodiyotda ish haqini baholashning uslubiy qoidalariga va xalqaro tavsiyalarga muvofiq, muayyan vaqt (soat, oy, yil) davomida xodim tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar (bajarilgan ishlar yoki ko'rsatilgan xizmatlar) evaziga ish beruvchilar tomonidan amaldagi qonun hujjatlariga asoslangan holda, soliq va boshqa to'lovlarni o'z ichiga oluvchi yollanma xodimlarning mehnatiga haq to'lash tarzida jismoniy shaxslarga pul shaklida hisoblangan daromadlardan aniqlanadi.

**Farg`ona viloyati statistikasi
Demografiya va mehnat statistikasi
boshqarmasi**

Tel: (73) 241-97-74, 249-87-32